



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2023 yil. “7” dekabr

415-son

**ShNQ 2.07.01-03 “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish to‘g‘risida” 2023-yil 25-maydagi PQ-163-son hamda “Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha huquqiy eksperimentni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-iyuldagi PQ-236-son qarorlariga muvofiq

**B U Y U R A M A N:**

1. ShNQ 2.07.01-03 “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.
2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.
3. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir



B.Zakirov

Ўзбекистон Республикаси қурилиш  
ва уй-жой коммунал хўжалиги  
вазирининг 2023 йил 7 декабрдаги  
415-сон буйруғига  
ИЛОВА

**ШНҚ 2.07.01-03\* «Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини  
ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш» шаҳарсозлик нормалари ва  
қоидаларига киритилаётган ўзгартиришлар**

1. 20.4-банднинг тўққизинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Шаҳар ҳудудида қуриладиган турар жой биносининг умумий майдони (ер устидаги барча қаватлар майдонларининг тўплами) ушбу турар жой биносини қуриш учун ажратилган ер участкаси майдонининг тўрт ярим баробаридан ошмаслиги лозим.».

2. 99-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«99. Умумий ўрта (ўрта махсус) таълим ташкилотининг ҳудудида ҳар бир таълим олувчи учун ажратиладиган умумий майдон ўлчами ушбу ШНҚнинг 21-жадвалига мувофиқ белгиланиши лозим.».

3. 21-жадвалнинг матни қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

Т/р	Ўқувчилар сони (киши)	Бир ўқувчига ажратилган умумий ер майдони ўлчами (м <sup>2</sup> )
1.	40 — 660 нафар	20
2.	661 — 989 нафар	15
3.	989 нафардан ортиқ	10

».

4. 99.1-банд ўз кучини йўқотган деб топилсин.